

**BO'LAJAK MUHANDISLARNI KASBGA YO'NALTIRISH VA BILIM,
MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH**

Fayzullo Baratov

Farg'ona davlat universiteti 13.00.02 ta'limda tarbiya nazaryasi
va metodikasi (matematika va informatila) doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolda bo'lajak muhandislarni kasbga yo'naltirish va bilim malakalarini rivojlantirish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, muhandis, texnologik, intellektual, o'zlashtirish

Hozirgi globallashuv davrida fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa jamiyat hayotining barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bu o'z navbatida ilmfanning yanada taraqqiy etishini taqozo etadi. "Globallashuv sharoitida mamlakatning innovatsion rivojlantirish salohiyati raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan bir paytda aholining yuqori bilim darajasi mamlakatga o'zini jamiyatga daxldor deb hisoblash imkonini beradigan obro' emas, balki yashovchanlik va iqtisodiy ta'minot, pirovardida siysiy mustaqillik omiliga aylanadi"[1].

Shunday ekan, kelajak yoshlarni yuksak ma'naviyatli, madaniyatli, o'tkir bilimli va albatta o'z ishining yetuk mutaxassisi qilib tarbiyalash vazifasi doimo ahamiyatlidir. Har qanday mutaxassisning, bu holda bo'lajak muhandislarning jamiyatdagi o'rni fan va texnika madaniyati yutuqlarini mustaqil ravishda olish, o'zlashtirish, ulardan foydalanish va uzatish qobiliyatining rivojlanish darajasiga bog'liq. Bo'lajak muhandisning intellektual va kasbiy harakatchanligiga qo'yiladigan talab juda dolzarbdir [1-3]. Ma'lumki, ishlab chiqarishni texnologik qayta qurish bilimlarni doimiy ravishda to'ldirish yoki yangilash zarurligini his qiladigan mutaxassisning faoliyat tizimini qayta qurish qobiliyatini anglatadi. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalarida muhandis tayyorlashdan maqsad bilim va ko'nikmalarni an'anaviy egallash bilan birga faoliyatning uslubiy ko'nikmalarini, harakat tamoyillari, metodlari va usullarini o'zlashtirish qobiliyatini shakllantiradi.

O'zlashtirish qobiliyati bilim, ko'nikma, malakalarini egallashvashu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Malaka, ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo'ladi. Yuzaga kelgan vaziyat ko'p jihatdan mashinasozlik, energetika, ishlab chiqarish texnologiyasi, xususan yengil sanoat va boshqa sohalar uchun yuqori malakali, kompetentli mutaxassislarni tayyorlash masalasida yangicha talablarni qo'ydi. Oliy ta'lim tizimining yaxlitligini ilmiy asoslash talab etiladi, o'quvjarayonini tashkil etishning turli shakllarini optimallashtirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbi bo'yicha kompetentligini baholash mezonlarini ishlab chiqish masalalarining muhimligi ortadi.

O'zgaruvchan jamiyat, iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari mutaxassisning kasbiy fazilatlari sohasiga yangi talablarni ilgari suradi. Ushbu jarayonning asosiy sabablari keltirilgan: ta'lim o'zgaruvchan iqtisodiyot o'rta qo'yayotgan da'vatga javob bermaydi. Natijada, jamiyat ta'lim sifatidan qoniqmaydi; ta'lim muassasalari va pedagoglarning mustaqilligi oshishi har doim ham ijobiy emas; me'yoriy-huquqiy noaniqlik ko'pincha ta'lim sohasidagi munosabatlarni qarama-qarshi tartibga soladi. Qonunlar va qonunosti hujjatlar tez-tez o'zgarib turadi; Ko'pincha innovatsion yangiliklar ta'lim muassasalari faoliyatining natijalarini yaxshilamaydi, aksincha yomonlashtiradi. O'qitish jarayonining shakllari va texnologiyalari o'zgarishiga, muhandislar tayyorlash sifatini baholash mezonlariga bog'liq bo'lgan ta'lim faoliyatining texnologiyalarini o'quv faoliyatini tashkillashtirishning metodlari bilan transformatsiyasi pedagog-tadqiqotchilar faoliyati uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi va mamlakatimizda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentlik faoliyatiga jahon amaliyotida qabul qilingan yondashuvni bosqichma-bosqich tadbiiq etishni shakllantiradi. O'qitish jarayonida talabalarni bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentlik faoliyati asosini birlashtiradigan va tashkil etadigan narsalarga yo'naltirishni nazarda tutadi. Jamiyatning bunday tartibi oliy o'quv yurtida o'qish davrida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlanishidagi asosiy o'zgarishlarni aniqlash uchun pedagogik tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etdi. Oliy o'quv yurtidagi umummuhandislik tayyorgarligi ushbu muammolarni hal qilishga yordam beradi. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning professional tayyorgarligi masalalari S.I.Arxangelskiy, V.P.Bespalko[3], V.A.Slastenin, U.N.Nishonaliyev, A.A.Abduqodirov, A.R.Xodjaboyev, R. Xasanov, N.Saidaxmedov, Q.O'.Tolipov, S.S.Bulatov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosini tashkil etadi. Ammo yengil sanoat buyumlari texnologiyasi yo'nalishida loyihalash asoslari, tikuv buyumlari texnologiyasi va boshqa maxsus fanlarni o'rganish muammolari bo'lajak kasbiy faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy fanlarga o'qitish bilan bog'liqlikda yetarlicha tahlil etilmagan. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zida o'quv jarayonining tashkiliy –pedagogik, metodik va texnologik asoslarni jamlagan grafik fanlarini o'zlashtirish bosqichida kasbga loyiqligi darajasini baholashning miqdoriy va sifat mezonlari hali ishlab chiqilmagan. Yuqoridagi fikrlar bizni bo'lajak muhandis tayyorgarligining kasbiy kompetentlik sifatiga talab yuqori bo'lgan sharoitda alohida dolzarflik kasb etadigan oliy o'quv yurtlari talabalari umummuhandislik tayyorgarligining tizimining samaradorligini nazariy asoslanishi va eksperimental tekshirilishi zarurligiga undadi. Talabalarning tayyorgarligi amaliy tajribasini umumlashtirishi va ilmiy-uslubiy ishlarning tahlili yuqori malakali bo'lajak mutaxassislarning grafik tayyorgarligi jarayonida quyidagi kamchiliklar va ziddiyatlarni aniqlashga imkon berdi. Birinchidan: -so'nggi yillarda oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining texnologik tayyorgarligiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarining natijalari chop etilgan. Ularda tanlangan kasbga yo'naltirilgan umummuhandislik muammolari ko'rib chiqilgan;-muhandis ishi va ishlab chiqarish texnologiyalari ta'limi

sohasida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning yaxlit uslubiy nazariyasi mavjud emas;-kurs ishlari va bitiruv ishlarini bajarishda grafik bilimlaridan foydalanishning yuqori darajasini ta'minlash uchun tikuv buyumlari texnologiyasi va uni o'rganishda motivatsiyani oshirishga imkon beradigan tadqiqotlar mavjud emas; -yosh mutaxassislarni amaliy, loyihaviy va ishlab chiqarish faoliyatiga moslashtirish jarayonida grafik tayyorgarlik muammolari tahlil etilmaydi. Bo'lajak muhandislarning oliy ta'lim muassasasida o'qib yurgandavrida kasbiy kompetentligi darajasi eng muhim xususiyati grafik tayyorgarligining sifati hisoblanadi. Bu narsa zamonaviy talablarni hisobga olgan holda talabalar grafik faoliyati samaradorligini ta'minlashi mumkin bo'lgan pedagogik sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan. Bunday metod talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndiradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar (innovatsion pedagogik texnologiyalar)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormokda. Innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga kodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari -interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sattorova Mahliyo Burxonovna. (2022). TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 436–440. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/2277>.
- 2.Burxonovna S. M. DIGITAL COMMUNICATIONS IN PEDAGOGIC EDUCATION //Scientific Impulse. –2022. –T. 1. –No. 5. –C. 827-829.8.
- 3.Yuldasheva S. I.A. KARIMOV ASARLARIDA YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G'OYALARI //Журнал Педагогической психологии в современном образовании. –2021. –Т. 1. –No. 4.9.

4.Rahmatullayeva M. XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI

//Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. –2021. –Т. 1. –No. 4.10.

5. Abduvakilovna, Karakulova Umida. "OLIY O'QUV YURTI TALABALARIDA

KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-

PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI."Journal of new century

innovations 19.2 (2022): 95

